

# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish surʼati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar- noyabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - dekabr xolatiga, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar



(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,7** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonalarining  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **19,9** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 3 182 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 11,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 40,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishi kuzatildi va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 9,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 9,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) tashkil etdi.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,6** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



**4,8**  
foizga oshdi




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida




- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 410 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 3,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 23,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringa 0,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,7 %) o'sishidir.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 6 280 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 14,9 % ga (jami savdodagi ulushi 70,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 12,7 % ga (jami savdodagi ulushi 21,4 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 11,7 % ga (jami savdodagi ulushi 8,2 %) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

**399**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

**27**



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


**10**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,9 foizga oshdi**



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**




**11,0**  
foizga oshdi



**Mikrofirmalar**



**Kichik korxonalar**



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,2** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**7,1**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**99**  
yashash bo'yicha xizmatlar




**1 259**  
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021-yil 1- dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 358 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 6,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 13,8% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) o'sishidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

*(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 2 012 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 350 ga yoki 21,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 898 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 331 ga yoki 21,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 450 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 73,4 % ni tashkil etdi.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 15 168 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 056 ga yoki 15,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 458 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 727 taga yoki 13,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 089 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 187 taga yoki 6,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 167 tani tashkil etib, ulardan 165 tasi yoki 98,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 ta yoki 9,4 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

15



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

16


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	165	102	63
<b>tumanlar:</b>			
Amudaryo	5	1	4
Beruniy	10	5	5
Bo'zatov	5	5	
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'irot	9	7	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	33	23	10
Nukus	10	5	5
Taxiatosh	8	3	5
Taxtako'pir	3	2	1
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	3	1	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	4	2	2
Ellikqal'a	5	4	1
Nukus sh.	39	22	17

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 39 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,6 %), Mo'ynoq 33 ta (20,0 %), Beruniy, Qorao'zak va Nukus tumanlarida 10 ta (6,1%), Qo'ng'irot 9 ta (5,5 %), Taxiatosh 8 ta (4,8 %), Kegeyli va Qonliko'l tumanlarida 6 tani (3,6 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,3 %), To'rtko'l (9,9 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,5 %), Ellikqal'a (6,0 %), Qo'ng'irot (5,8 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,4 %), Chimboy (4,1 %), Taxiatosh (3,1 %), Kegeyli (2,9 %), Qorao'zak va Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l va Shumanay tumanlarida (2,6 %), Taxtako'pir (1,9 %) va Bo'zatov (1,5%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar - noyabr oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-noyabro oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,3 %), To'rtko'l (8,5 %), Beruniyda (9,2 %), Amudaryo (7,1 %), Ellikqal'a (6,0 %), Xo'jayli (6,4%), Qo'ng'irot (4,9%), Chimboy (4,4 %), Nukus (4,2 %), Mo'ynoqda (3,9 %), Kegeyli (3,2 %), Qonliko'l (3,0 %), Taxiatosh (3,1 %), Shumanay (2,9 %), Qorao'zak (2,6 %), Bo'zatov (2,8 %), Taxtako'pir (2,5 %) tumanlari ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

18



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,3 %), To'rtko'l (10,2 %), Beruniy (7,1 %), Amudaryo tumani (6,8 %), Xo'jayli (5,5 %), Nukus va Qo'ng'irot (5,3 %), Ellikqal'a (4,3 %), Chimboy (4,2 %), Qorao'zak (2,9 %), Mo'ynoq va Kegeylida (3,1 %), Taxiatosh tumani (2,4 %), Bo'zatov va Shumanay (1,8 %), Qonliko'l (1,7 %), Taxtako'pir (1,2%) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

# Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 61 224-92-09**